

O`ZBEKİSTON BANK TİZİMİNİ RAQAMLASHTIRISH SOHASIDA OLIB
BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR SAMARADORLIGI

Xojiakbarov Ibroximjon Foziljon o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistraturasida

“Bank ishi” mutaxassisligi tinglovchisi

Ilmiy rahbar - I.F.D., dos. X.U.Raximova

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Mamlakatimiz banklari kapitallashuv darajasining oshishi va ularning investitsiya jarayonlarida hamda iqtisodiy tuzilmaviy o‘zgarishlarda ishtiroki yanada faollashganligi, bank tizimini isloh qilishga qaratilgan ishlar davom ettirilayotganligi haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: mamlakat, bank, hisobot, moliya, faollik, kapitallashuv, mustahkamlash, bank-moliya tizimi.

Ta’kidlash lozimki, respublikamiz bank-moliya tizimini isloh qilish va mustahkamlash bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar banklarning kapitallashuv darajasini oshirish, iqtisodiyotni kreditlash ko‘lamini kengaytirish, ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari spektorlarini ko‘paytirish, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda bank tizimining rolini oshirish imkonini berdi.

Shu bilan birga ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini yanada oshirish hamda tadbirkorlik subyektlari bilan to‘laqonli hamkorlik munosabatlarni o‘rnatish uchun tijorat banklarining ish uslublarini tubdan yaxshilash, aholi va xo‘jalik subyektlarining bank tizimiga ishonchli institutsional hamkor sifatida qarashlarini mustahkamlash vazifalari dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ichki valyuta bozorini liberallashtirish sharoitida tijorat banklarining barqarorligi va moslashganligi bo‘yicha ularni stress-testlardan o‘tkazish natijasida banklarning moliyaviy holati va valyuta pozitsiyalariga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan bir qator kamchiliklar aniqlandi, o‘z navbatida ularning oqibatlari banklarning likvidligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mamlakatimiz banklari kapitallashuv darajasining oshishi va ularning investitsiya jarayonlarida hamda iqtisodiy tuzilmaviy o‘zgarishlarda ishtiroki yanada faollashgan davri. O’sha kezlarda mamlakat hukumati banklarning foyda (daromad) solig ‘idan ozod qilinishiga banklar faolligi oshuvining yana bir zahirasi sifatida qaradi. Boz ustiga, tasdiqlangan davlat dasturlariga muvofiq, tijorat banklarining mini-banklar tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlari ham soliq undirish bazasidan chiqarildi. Shu tariqa, asosiy e’tibor pul muomalasini mustahkamlash va milliy valyuta, uning ayriboshlash kursi barqarorligini oshirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratildi.

Bu esa fuqarolarda katta rag’bat uyg’otib, ularning banklarga nisbatan ishonchini yanada orttirdi. Aholining banklarda depozit hisob raqamlar ochishga kirishishi bilan bog‘liq ijobjiy holatlar ko‘paydi. Banklarning depozit bazasi hajmi oshdi, bank xizmatlari bozori shakllana boshladi. E’tiborlisi, bank mahsulotlari qatoridan yangi xizmat turlari, masalan, lizing xizmatlari joy ola boshladi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, mamlakatimizda chakana xizmatlar

rivoji xalqaro bank va moliya kapitalini keng jalb qilgan holda qo'shma banklarning tashkil etilishiga ta'sir ko'rsatdi. Respublikamiz bank bozori 100 foizli xususiy kapital asosidagi yangi banklarning vujudga kelishi natijasida tubdan o'zgardi. Xususiy banklarning xizmatlar bozoridagi raqobatni kuchaytirib yuborgani mamlakat bank tizimi rivojida eng muhim bosqichlardan biri bo'ldi.

Mamlakatimiz hukumati va Markaziy banki soliq imtiyozlari va kadrlarni tayyorlash jarayonida texnikaviy ko'mak taqdim etgan holda ularning rivojlanishini muntazam rag'batlantirib bormoqda. Ayni paytda xususiy banklar soni tijorat banklari umumiy sonining qariyb yarmini tashkil etadi.

Respublikamizda xususiy banklar rivojlanishini izchil rag'batlantirish raqobatni kuchaytirishga, ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini yaxshilashga va moliyaviy resurslarning samarali taqsimatiga turtki berdi. Bu esa, o'z navbatida, xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish va rivojlanish jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bank tizimini isloh qilishga qaratilgan ishlar davom ettirildi. Uning asosiy yo'nalishlari sifatida banklar boshqaruvida aksiyadorlarning rolini oshirish orqali korporativ boshqaruv tizimini mustahkamlash, banklar moliyaviy barqarorligini ularning aktivlari, jumladan, valyuta aktivlari sifatini yaxshilash evaziga kuchaytirish, bank ishini yanada takomillashtirish va banklar tomonidan ko'rsatiladigan xizmat turlarini tobora kengaytirish, tijorat banklarining investitsion jarayonlardagi rolini oshirish va mulkchilikning barcha shaklidagi tadbirkorlik tuzilmalarining kredit resurslaridan (jumladan, xalqaro moliyaviy tashkilotlarning liniyalari bo'yicha ham) foydalanish mexanizmi takomillashtirilganini qayd etish joiz.

Hozirgi kunda 33 ta bank, jumladan davlat ulushi mayjud bo'lgan 12 ta bank iste'molchilarga xizmat ko'rsatib kelmoqda. Iqtisodiyotga ajratilgan kreditlarning 85%i davlat ulushi mayjud banklar hissasiga to'g'ri keladi.

Tijorat banklari tomonidan mijozlarga xizmat ko'rsatuvchi bank filiallari soni 876 taga, mini-banklar 4177 taga yetdi.

Ekspertlarning tahliliga ko'ra, sohadagi asosiy muammo va kamchiliklar quyidagilar:

- bank sohasida davlat ulushining yuqoriligi (bank aktivlarining 80% davlat ulushi mayjud banklarga tegishli);
- infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli to'lov kartalaridan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi va bankomatlar sonining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlaridagi o'rtacha ko'rsatkichdan pastligi (har 100 000 kishiga 48 ta bankomat);
- kreditlashda jismoniy shaxslarni qamrab olish darajasining pastligi (kreditlarning faqat 19%ni jismoniy shaxslarning ulushiga to'g'ri keladi, dunyo mamlakatlarida esa o'rtacha 40%).

Muammolarni bartaraf etish uchun ekspertlar raqamli bank va fintech kompaniyalari kirishiga yanada ko'proq imkoniyat yaratish, hamda banklarda xizmat ko'rsatish shoxobchalarini kengaytirish kerakligini qayd etishgan.

Shuningdek muammoning yechimi sifatida bank xizmatlari ko'rsatishning muqobil usullarini joriy etish bilan iste'molchilarga qulaylik yaratish va bank xizmati tranzaksiya vaqtiga, narxini kamaytirish hamda mijozlar uchun firibgarlik xavfini kamaytirish takliflarini berilgan.

Davlatimiz rahbari muammoli kreditlarni qaytarish banklarning imkoniyatlarini yanada kengaytirishini, ularni undirish bo'yicha banklar, qarzdor korxonalar, kompaniya va uyushmalar, hududlar rahbarlari birgalikda ish olib borishi zarurligini ta'kidladi.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, raqamli bank va fintech kompaniyalari sonini oshirish, online banking xizmatlarini takomillashtirish yo'llari bilan moliyaviy xizmatlar sohasini yanada rivojlantirishga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Seydimova O. O. Bank xizmatlar sohasini rivojlantirish usullari //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 2. – C. 1465-1469.
2. Nilufar A. YANGI O'ZBEKİSTONDA MOLİYA-BANK SOHASINING İSTIQBOLINING BELGILASH YO'LLARI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN İLMIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 3. – C. 51-54.
3. Tukhtasinova D. R. RAQAMLI O'ZGARİSHLAR SHAROITIDA XİZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI //Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 3. – C. 52-56.